



TOMAS HARRIS ASARLARIDA PSIXOLOGIK TRILLER JANRI AN'ANALARI

Samandarova Sojida Furqat qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

2-kurs tayanch doktoranti

Email: sojida.samandar0791@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10812583>

Annotatsiya. Mazkur maqoladan psixologik metod tamoyillariga tayanilgan holda amerikalik yozuvchi Tomas Harrisning Gannibal Lekter tetralogiyasi misolida triller janrining xususiyatlari va yozuvchi tomonidan qo'llanilgan janrga xos badiiy-uslubiy vositalar tahlili o'rin olgan. Harrisning o'tkir syujetli trillerlari orqali qahramon badiiy psixologizmini tadqiq etish badiiy adabiyotning ahamiyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: *psixologik triller, manipulyatsiya, chiller janri, saspens, prototip*

Triller – adabiyot va kino sohasida yaratilayotgan asarlar janri bo'lib, u tomoshabin yoki kitobxonlarda xavotirli kutuv, hayajon yoki qo'rquv hislarini uyg'otadi. Ushbu janrning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lsa ham aniq chegaralari yo'q. Triller elementlari boshqa janrlardagi asarlarda, boshqa janrlarning elementlari esa trillerda keng qo'llaniladi. Trillerni tagjanrlarga bo'lish mavzuviy o'ziga xosliklarga asoslanadi, umumiy qaralganda ular janrning asosiy xususiyatlariga mos keladi. Jeyms Patterson yozganidek, *“Triller janrida yangidan-yangi turlar paydo bo'lmoqda va tarkibiy kengayishning ijobiy qabul qilinishi janrning o'lmas xususiyatlaridan biridir. Kuchli his-tuyg'ular, ayniqsa, hadik va shodlik, hayajon va nafasning ichga tushib ketishi trillerning turfa xil tagjanrlarni yagona “tom” ostida birlashtiradi”* [6;4].

Psixologik triller e'tiborni qahramonlar ruhiyatiga qaratuvchi, tomoshabin yoki kitobxonni ruhan manipulyatsiya qiluvchi triller janridagi roman yoki kinofilmdir [5]. Qahramonning ruhiy holatidagi sezgilar, o'y-xayollar, buzib ko'rsatilgan haqiqatning asl ko'rinishini anglab yetish yo'lidagi qiyinchiliklar kabi evrilishlar janrning asosiy belgilaridir. Qo'rquv va xavotir ruhiy taranglikni kutilmagan usullar orqali kuchaytiradi. Qahramonlarning keyingi xatti-harakatlarining, dunyoni qanday ko'rishlarining noma'lumligi taranglikning susaymasligini ta'minlab turadi. Asosan psixopat (“Qo'zichoqlar sukunati”dagi Gannibal Lekter) yoki bir necha shaxsiyatga ega inson (“Qizil ajdarho”dagi Frensis Dolarhayd) sifatida tasvirlanuvchi yovuz qahramonning qaytib kelib, qahramonlarni abadiy ta'qib etishini ifodalovchi ochiq va dahshatli



xotima psixologik trillerga xos xususiyatdir. Unda oddiy detektiv romanlarda ochiqqlanmay qolib ketadigan yashirin ko'rinishlar fosh etiladi. Unda dunyo adolatsizlik, azob-uqubat va zo'ravonliklarga to'la ko'rinishda aks ettiriladi. Yovuz qahramon o'zgalarning dardi ustidan kulishni istaydi, vaqtichog'lik va hayratomuz taassurotlar ilinjida bo'ladi.

Jeyms Frey mukammal tarzda yozilgan psixologik trillerlarning e'tibor markazida yovuq qahramonning psixologiyasi turishini va noma'lumliklar orqali sekin-asta taranglik mustahkamlanib borishini e'tirof eta turib, ko'pincha qo'rqinchli janrda yaratilgan ijod mahsullarining salbiy kutib olinishini istamay, uning psixologik triller deya tavsiflashini, aynan shu holat adabiy tanqidchilarning asarning adabiy qimmatini oshirish maqsadida psixologik triller deb atashida ham namoyon bo'lishini ilova qilib o'tadi [1;248]. Psixologik trillerni oddiy trillerdan ajratib turuvchi xususiyatlar kitobxonning butun diqqaini jalb etuvchi jumboqli holatlar va xunrezliklarning ko'pligida aks etadi. Ushbu janr uchun doimiy tahdid muhiti va nogahon yuz beruvchi zo'ravonlik, jinoyat va qotillik harakatlari, bosh qahramonlar esa xavf-xatar hamda zo'ravonlikka odatlanmagan oddiy odamlar (Mettyu Bennon – talaba; Kleris Starling – kursant; Uill Grexem – tergovchi) bo'lishadi. Syujet asosida bosh qahramonning tinch va xotirjam hayoti kutilmaganda allaqanday tushunarsiz hamda nazorat qilib bo'lmas yovuzlik ta'sirida alg'ov-dalg'ov bo'lib ketishi, turli xatarli vaziyatlarga tushishi yotadi. Psixologik trillerning boshqa qo'rqinchli janrlardan, jumladan, chiller janridan asosiy farqi ham undagi yovuz qahramonning haqiqiyligidadir. Masalan, Meksika qamoqxonasida faoliyat yuritgan shifokor seriyali qotil Gannibal Lekter obrazi uchun prototip bo'lib xizmat qilgan. Stiven Kingning chiller janridagi "U" romanida esa yovuz qahramon sifatida olingan qonxo'r "masxaraboz" esa o'z ko'rinishini o'zgartira oluvchi afsonaviy mavjudot va vampirga oid xususiyatlarni o'zida jamlagan.

Porstmur universiteti professori Kristofer Pittard detektiv asarlar bilan bir qatorda psixologik triller janri, uning mohiyati va tadrijiy taraqqiyoti bo'yicha ham tadqiqot olib boradi. Uiley nashriyotida chop etilgan "Gotika ensiklopediyasi"ga psixologik triller atamasini hamda uning ilmiy tavsifini aynan Kristofer Pittard kiritgan bo'lib, u o'z maqolasida janrning gotik uslub bilan uzviy jihatlarini ham sanab o'tgan. Uning ta'kidlashicha, psixologik triller gotika bilan ikki tomonlama bog'liqlik kasb etadi [4;531-533]. Birinchidan, detektiv adabiyotning adabiy analoglari sifatida psixologik trillerlar va gotik asarlar umumiy ildizga ega. Detektiv adabiyot g'ayritabiiy unsurlarga ratsionalistik yondashuv natijasida vujudga kelgan bo'lib, Edgar Allan Po ham gotik uslubda,





ham detektiv janrda samarali ijod etgan yozuvchi sanaladi. Detektiv asarga voqea-hodisalarning mantiqiy izohlanishi va aniq xotimaning mavjudligi xos bo'lsa, psixologik triller subyektivlikka hamda huquqbuzarlikning psixologik asoslariga ko'proq e'tibor qaratadi, aniq xotima bayoniga odatda kafolat berilmaydi. Ikkinchi bog'liqlik esa janr terminologiyasining o'zida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. James N.Frey. How to Write a Damn Good Thriller: A Step-by-Step Guide for Novelists and Screenwriters. St. Martin's Publishing Group, –248 p.
2. Harris T. Harris T. Qo'zichoqlar sukunati. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. –431 b.
3. Harris T. Qizil ajdarho. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2021.–495 b.
4. Pittard Ch. (2012). Psychological Thrillers. In the Encyclopedia of the Gothic (eds W.Hughes, D.Punter and A.Smith). 531-533 pp. <https://doi.org/10.1002/9781118398500.wbeotgp014>
5. Psychological thriller. Oxford Living Dictionaries. https://en.oxforddictionaries.com/definition/psychological_thriller
6. Thriller: Stories to keep you up all night. Ed.Patterson J. Ontario, Canada: MIRA Books, 2006.–576 p.

